

NOGIRONLAR HUQUQLARINI TA'MINLASHDA XALQARO STANDARTLARI VA MILLIY QONUNCHILIK UYG'UNLIGI

Davronov Kamol Komilovich

Kogon shahar "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi mutaxassisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19689655>

Annotatsiya. Ushbu maqolada nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash masalasi xalqaro huquq normalari va O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligi uyg'unligi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi tamoyillarining milliy qonunchilikka implementatsiya qilinishi, inklyuziv jamiyat qurish yo'lidagi huquqiy islohotlar hamda amaliyotda uchrayotgan muammolar o'rganilgan. Shuningdek, xalqaro standartlarni milliy amaliyotga joriy etishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: nogironligi bo'lgan shaxslar, inson huquqlari, xalqaro standartlar, BMT Konvensiyasi, milliy qonunchilik, qonunlar uyg'unligi, inklyuziya, ijtimoiy himoya, teng imkoniyatlar, to'siqsiz muhit.

HARMONIZATION OF INTERNATIONAL STANDARDS AND NATIONAL LEGISLATION IN ENSURING THE RIGHTS OF PERSONS WITH DISABILITIES

Annotation. This article analyzes the issue of ensuring the rights of persons with disabilities from the perspective of the harmonization of international legal norms and the national legislation of the Republic of Uzbekistan. The implementation of the principles of the United Nations (UN) Convention on the Rights of Persons with Disabilities into national legislation, legal reforms aimed at building an inclusive society, and practical problems encountered in reality are examined. Furthermore, scientific and practical conclusions on improving the integration of international standards into national practice are provided.

Keywords: persons with disabilities, human rights, international standards, UN Convention, national legislation, harmonization of laws, inclusion, social protection, equal opportunities, barrier-free environment.

KIRISH

Inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, jamiyatning har bir a'zosi uchun ijtimoiy kelib chiqishi, jismoniy yoki ruhiy holatidan qat'i nazar, teng imkoniyatlar yaratish zamonaviy huquqiy davlatlarning eng asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda dunyo aholisining qariyb o'n besh foizini tashkil etuvchi nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish xalqaro hamjamiyatning doimiy diqqat markazida turibdi.

Tarixan nogironlik masalasiga faqatgina tibbiy muammo yoki xayriya obyekti nuqtai nazaridan yondashilgan bo'lsa, hozirgi davrda bu masala bevosita inson huquqlari, ijtimoiy adolat va inklyuziv taraqqiyot tamoyillariga tayanuvchi ijtimoiy model asosida tahlil qilinmoqda.

Shu ma'noda, nogironligi bo'lgan shaxslarni himoyaga muhtoj qatlam emas, balki huquqning to'laqonli subyekti sifatida e'tirof etish, ularni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlarga faol jalb etish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda inson qadrini ulug'lash va kuchli ijtimoiy davlat qurish g'oyasi doirasida bu yo'nalishda tub huquqiy burilishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu mavzuning dolzarbligi shundaki, kafolatlangan huquqiy asoslarsiz va xalqaro standartlarni milliy amaliyotga to'g'ri joriy etmasdan turib, tenglikka asoslangan haqiqiy inklyuziv jamiyatni barpo etish mutlaqo imkonsizdir.

Mamlakatimizda nogironligi bo'lgan shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimi bevosita xalqaro me'yorlar bilan uyg'unlashtirilgan qator fundamental qonun hujjatlari orqali mustahkamlanmoqda. Avvalo, 2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumini orqali yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57-moddasida nogironligi bo'lgan shaxslar davlat himoyasida ekanligi qat'iy belgilab qo'yildi.

Asosiy qonunimizda davlat nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalardagi huquqlarini amalga oshirish, ularni ishga joylashtirish va ta'lim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratishi eng oliy yuridik kuchga ega norma sifatida kafolatlandi. Shuningdek, sohadagi tub islohotlarning huquqiy poydevori sifatida 2020-yil 15-oktabrda qabul qilingan "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini alohida qayd etish zarur. Ushbu amaldagi qonun nogironlik belgisi bo'yicha har qanday kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik, jamiyat hayotida boshqalar bilan teng sharoitlarda ishtirok etish uchun to'siqsiz jismoniy muhitni shakllantirish hamda inklyuziv ta'lim tizimini joriy etish kabi ustuvor mexanizmlarni o'zida mujassam etgan.

Buning mantig'iy va huquqiy davomi sifatida O'zbekiston davlati 2021-yil 7-iyun kuni qabul qilingan alohida Qonun bilan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasini ratifikatsiya qildi. Bu orqali respublikamiz milliy qonunchilikni va amaliyotni BMT standartlariga to'liq moslashtirish bo'yicha xalqaro majburiyatni o'z zimmasiga oldi. Shu bilan birga, 2023-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligining tashkil etilishi hamda uning tizimida hududlarda, jumladan, Kogon shahrida ham "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyatining yo'lga qo'yilishi qabul qilinayotgan ushbu qonunlarning qog'ozda emas, balki amaldagi ijrosini ta'minlashda eng muhim institutsional qadam bo'ldi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, milliy qonunchiligimizdagi jadal yangilanishlarning BMT Konvensiyasi talablari bilan qay darajada uyg'unlashgani, bu murakkab jarayonda erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda amaliyotda yechimini kutayotgan muammolarni ilmiy-amaliy jihatdan chuqur tahlil qilish zamonaviy huquqshunoslik va sotsiologiya fanining eng dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini ta'minlash borasidagi xalqaro va milliy qonunchilik uyg'unligi masalasi ko'plab xalqaro tashkilotlar, huquqshunos olimlar va ijtimoiy soha tadqiqotchilarining doimiy diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Xususan, BMTning Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi hisobotlarida hamda xorijiy va mahalliy huquqshunoslarning ilmiy ishlarida nogironlikning tibbiy modelidan ijtimoiy-huquqiy modeliga o'tish zarurati zamonaviy davlatchilikning asosiy sharti sifatida baholanadi. Ushbu maqolaning adabiyotlar tahlili qismini shakllantirishda bevosita O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik bazasi hamda xalqaro standartlarni ifodalovchi hujjatlar kompleks o'rganildi. Asosiy manba sifatida 2021-yilda mamlakatimiz tomonidan ratifikatsiya qilingan BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi, ijtimoiy davlat tamoyillarini o'zida aks ettirgan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (xususan, nogironligi bo'lgan shaxslarning davlat himoyasida ekanligini kafolatlovchi 57-modda), shuningdek, sohaning fundamental hujjati bo'lgan 2020-yil 15-oktabrdagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonun chuqur tahlilga tortildi. Bundan tashqari, amaliyotdagi holatni xolis baholash maqsadida yangi tahrirdagi Mehnat kodeksining nogironligi bo'lgan shaxslarni ish bilan ta'minlash bo'yicha ish beruvchilarga minimal kvotalarni belgilovchi normalari (xususan,

424-modda) hamda 2020-yilda qabul qilingan “Ta’lim to’g’risida”gi qonunning inklyuziv ta’limga doir qoidalari asosiy tadqiqot obyektiga aylantirildi.

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida yuridik fanlarda keng qo’llaniladigan qator umumilmiy va maxsus metodlardan foydalanildi. Qiyosiy-huquqiy tahlil metodi orqali milliy qonunlarimizdagi normalar BMT Konvensiyasi talablari bilan solishtirilib, ularning qanchalik mos kelishi va milliy huquq tizimiga implementatsiya darajasi tekshirildi. Tizimli tahlil usuli yordamida turli sohalardagi, xususan, ta’lim, mehnat, sog’liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarni tartibga soluvchi qonun hujjatlarining o’zaro uzviy ishlash mexanizmi o’rganildi. Shuningdek, tarixiy-huquqiy metod qo’llanilib, huquqiy normalarning so’nggi yillardagi evolyutsion rivojlanishi, qonunchilikdagi eskirgan stereotiplarning bekor qilinishi xronologik tartibda baholandi. Empirik va mantiqiy xulosa qilish (induksiya, deduksiya) metodlari yordamida esa qabul qilingan qonunlarning hayotga tatbiq etilishi, jamiyatdagi real holat qonun va amaliyot o’rtasidagi tafovutlar qiyofasida ochib berildi hamda mavjud huquqiy muammolarni bartaraf etish bo’yicha amaliy takliflar shakllantirildi.

NATIJARLAR

Xalqaro standartlarning milliy qonunchilikka implementatsiya qilinishi natijasida O’zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvi va ijtimoiy xizmatlar ko’rsatish tizimida mutlaqo yangi institutsional yondashuv shakllandi. BMT Konvensiyasi talablaridan kelib chiqib, Ijtimoiy himoya milliy agentligining tashkil etilishi eng yirik amaliy natijalardan biri bo’ldi. Endilikda nogironligi bo’lgan shaxslarga xizmat ko’rsatish tor doiradagi tibbiy muassasalar qolipidan chiqib, bevosita mahallalarda faoliyat yurituvchi “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari orqali manzilli va kompleks tarzda amalga oshirilmoqda. Bu holat xalqaro tajribadagi g’amxo’rlik xizmatlarini mahalla darajasiga tushirish, ya’ni jamiyatga asoslangan rehabilitatsiya prinsipining milliy amaliyotdagi real va samarali ifodasidir. Shuningdek, tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari (TMEK) faoliyatini xalqaro standartlarga, xususan, Jahon sog’liqni saqlash tashkilotining Xalqaro funksiyalar tasnifiga (ICF) moslashtirish bo’yicha qator amaliy ishlar boshlandi. Bu huquqiy o’zgarish nogironlikni belgilashda faqat kasallik holatiga emas, balki shaxsning ijtimoiy hayotdagi ishtiroki va shaxsiy mustaqilligiga e’tibor qaratish imkonini bermoqda.

Ta’lim sohasidagi uyg’unlashuv natijalari tahlil qilinganda, 2020-yilda yangi tahrirda qabul qilingan “Ta’lim to’g’risida”gi qonun doirasida inklyuziv ta’lim muvaffaqiyatli joriy etilayotganini ko’rish mumkin. Oldinlari nogironligi bo’lgan bolalar asosan maxsus maktab-internatlarda jamiyatdan ajratilgan holda o’qitilgan bo’lsa, bugungi kunga kelib respublikadagi yuzlab umumta’lim maktablarida inklyuziv sinflar ochildi. Hukumat qarorlari bilan tasdiqlangan Inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi asosida umumta’lim maktablarida maxsus pedagoglar, psixologlar va tyutorlar (yordamchilar) shtatlari joriy etildi. Natijada nogironligi bo’lgan o’quvchilarning o’z tengdoshlari bilan bir qatorda, yashash joyiga yaqin bo’lgan oddiy maktablarda sifatli ta’lim olish huquqi amalda ta’minlanmoqda.

Mehnat munosabatlarida ham xalqaro normalarga xos bo’lgan kamsitishlarga yo’l qo’ymaslik tamoyili o’zining ijobiy natijalarini ko’rsatmoqda. O’zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Mehnat kodeksining 424-moddasiga muvofiq, xodimlar soni yigirma kishidan ortiq bo’lgan korxonalar va tashkilotlarda nogironligi bo’lgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o’rinlarining eng kam miqdori xodimlar ro’yxatdagi o’rtacha sonining uch foizi miqdorida zaxiraga qoldirilishi majburiy etib belgilandi. Ushbu normaning ijrosini kafolatlash maqsadida davlat tomonidan ish beruvchilarga soliq imtiyozlari va subsidiyalar ajratish amaliyoti yo’lga qo’yildi.

Xususan, nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga qabul qilgan tadbirkorlik subyektlariga Ijtimoiy himoya davlat jamg'armasi hisobidan mehnatga haq to'lash mablag'larining bir qismi qoplab berilishi natijasida ochiq mehnat bozorida ularning qonuniy bandligini ta'minlash ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshdi.

BMT Konvensiyasining eng muhim talablaridan biri bo'lgan to'siqsiz muhit yaratish bo'yicha shaharsozlik normalari va qoidalari (ShNQ) tubdan qayta ko'rib chiqilganligi yana bir jiddiy natijadir. Yangi qurilayotgan ijtimoiy obyektlar, ko'p qavatli uylar va transport infratuzilmasini loyihalashtirishda panduslar, ko'zi ojizlar uchun taktik koshinlar hamda maxsus jihozlangan liftlar bo'lishi qat'iy talab sifatida qonunchilikda mustahkamlandi. Qurilish nazorati organlari tomonidan obyektlarni foydalanishga qabul qilishda ushbu inklyuziv talablar bajarilmagan taqdirda obyektga ruxsatnomalar berilmasligi amaliyotga qat'iy kiritildi.

MUHOKAMA

Milliy qonunchiligimizning xalqaro standartlar, xususan, BMT Konvensiyasi bilan uyg'unlashuvi ijobiy baholansada, erishilgan natijalar tahlili va amaliyotdagi real holat huquqni qo'llash borasida qator ziddiyatli masalalarni keltirib chiqarmoqda. Muhokama qilinishi lozim bo'lgan eng asosiy muammo shundaki, normativ-huquqiy hujjatlarning mukammalligi doim ham ijro intizomining to'liq va sifatli ta'minlanishini kafolatlay olmaydi. Masalan, shaharsozlik normalarida to'siqsiz jismoniy muhit yaratish qat'iy belgilangan bo'lishiga qaramay, amaliyotda eski va ommaviy binolarning aksariyati hanuzgacha nogironligi bo'lgan shaxslar uchun to'liq moslashtirilmagan. Yangi qurilayotgan ba'zi obyektlarda esa panduslar va maxsus yo'laklar faqatgina davlat qabul qilish komissiyasidan o'tish uchungina, xalqaro standartlarga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan (masalan, o'ta qiya) shaklda qurilayotganligi yashirib bo'lmas haqiqatdir.

Bu esa qonun ustuvorligini ta'minlashda jamoatchilik nazorati, jumladan, ixtisoslashgan nodavlat tashkilotlarning nazorati yetarli emasligini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, yangi tahrirdagi Mehnat kodeksining 424-moddasida belgilangan uch foizlik ish o'rinlari kvotasi amaliyotda to'liq ishlashi uchun jiddiy psixologik va institutsional to'siqlar mavjud. Ko'pgina xususiy ish beruvchilarda nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat unumdorligi past bo'ladi, degan noo'rin va eskirgan stereotiplar hamon saqlanib qolmoqda.

Buning oqibatida, ayrim tashkilotlar kvota talabini bajarish o'rniga, javobgarlikdan qochishning turli huquqiy yechimlarini izlashadi yoki shunchaki ma'muriy jarima to'lash bilan cheklanishadi. Davlat tomonidan ish beruvchilarga berilayotgan moliyaviy subsidiyalar bu muammoni qisman yumshatsa-da, jamiyat ongida nogironlikning ijtimoiy va inson huquqlariga asoslangan modelini to'liq shakllantirmasdan turib, mehnat bozorida haqiqiy tenglikni ta'minlash qiyin kechadi.

Uchinchidan, ta'lim muassasalarida inklyuziv tizimga o'tish jarayonining o'ziga xos resurs talab qiluvchi murakkabliklari yuzaga chiqmoqda. Umumta'lim maktablarida alohida ehtiyojli bolalarni o'qitish uchun huquqiy kafolatlar yaratilgan bo'lsa-da, joylarda maxsus tayyorgarlikdan o'tgan malakali pedagoglar, shuningdek, moslashtirilgan o'quv materiallarining yetishmovchiligi aniq sezilmoqda. Bunday sharoitda inklyuziya g'oyasi o'z maqsadiga xizmat qila olmaydi.

Muxtasar aytganda, qonunchilikdagi uyg'unlashuv yuqori darajada amalga oshirildi, ammo ijtimoiy-madaniy transformatsiya jarayoni biroz orqada qolmoqda. BMT standartlarining amaldagi qonunlarimizda o'z aksini topishi faqatgina birinchi bosqich bo'lib, kelgusida ushbu qoidalarning hayotga qat'iy kirib borishini huquqiy nazorat mexanizmlarini kuchaytirish orqali ta'minlash zarur.

XULOSA

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasida nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini ta'minlash mexanizmlarini xalqaro standartlar, xususan, BMT Konvensiyasi talablari bilan uyg'unlashtirish borasida muhim huquqiy va institutsional poydevor yaratildi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya va qabul qilingan sohaga doir qonunlar mamlakatning ijtimoiy davlat tamoyillariga sodiqligini amalda namoyon etdi. Biroq, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mukammal qonunchilik bazasi o'z-o'zidan inklyuziv jamiyatni shakllantira olmaydi.

Huquq va amaliyot o'rtasidagi tafovutlarni bartaraf etish uchun, eng avvalo, qonun ijrosi ustidan qat'iy davlat va jamoatchilik nazoratini o'rnatish, shaharsozlik va ijtimoiy infratuzilmani to'liq moslashtirish hamda jamiyatdagi eskirgan stereotiplarni yo'q qilish zarur. Shuningdek, barcha darajadagi mutaxassislarni nogironlikning ijtimoiy modeliga asoslangan holda qayta tayyorlash tizimini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Faqatgina qonun ustuvorligi, qat'iy ijro mexanizmlari va jamiyatning yuksak inklyuziv madaniyati orqaligina nogironligi bo'lgan har bir shaxsning qadr-qimmati va teng huquqliligini to'laqonli ta'minlashga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi (Nyu-York, 2006-yil 13-dekabr) // BMTning rasmiy veb-sayti. – URL: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/disability.shtml (murojaat vaqti: 19.04.2024).
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023-yil 30-apreldagi O'zbekiston Respublikasi referendumida yangi tahrirda qabul qilingan) // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.
3. O'zbekiston Respublikasining "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyani (Nyu-York, 2006-yil 13-dekabr) ratifikatsiya qilish haqida"gi Qonuni, O'RQ-695-son, 07.06.2021-y. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 08.06.2021-y., 03/21/695/0535-son.
4. O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-641-son, 15.10.2020-y. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.10.2020-y., 03/20/641/1389-son; 18.05.2022-y., 03/22/770/0424-son.
5. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-637-son, 23.09.2020-y. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son.
6. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi (O'RQ-798-son Qonuni bilan tasdiqlangan, 28.10.2022-y.) // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.10.2022-y., 02/22/798/0972-son.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, PF-82-son, 01.06.2023-y. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.06.2023-y., 06/23/82/0320-son.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori, 638-son, 12.10.2021-y. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.10.2021-y., 09/21/638/0956-son.

9. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (BMT Bosh Assambleyasining 1948-yil 10-dekabrda 217 A (III) rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan) // Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar to'plami. – Toshkent : Adolat, 2004.